

TASVIRIY SAN'AT MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI RASSOMCHILIK SAN'ATI VAZIFASI VA OBRAZLI JIHATLARI BILAN TANISHTIRISH

Baymurzayeva Oykaram Shodiyevna¹, Mamatkulova Afruza Sherzod qizi²

¹Jizzax Davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
kafedrası katta o'qituvchisi, ²"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi
1-bosqich talabasi, Jizzax. O'zbekiston.
e-mail: baymurzayeva77@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada rassomchilik san'atiga oid masalalar, rassomchilik san'atining paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shtrix, karton, pastel, etyud, illyustratsiya, rassomlik san'ati, kompozitsiya.

Учащиеся в художественных школах изобразительных искусств введение в задачи и образы искусства

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с искусством живописи, возникновением, развитием и особенностями искусства живописи.

Ключевые слова: штрих, картон, пастель, этюд, иллюстрация, живопись, композиция.

Students in the schools of fine arts introduction to the tasks and images of the art

Annotation: The article deals with issues related to the art of painting, the emergence, development and peculiarities of the art of painting.

Keywords: barcode, cardboard, pastel, etude, illustration, painting, composition.

Rassomchilik san'ati — asarlari biror yuza (qog'oz, mato, taxta, devor va boshqalar)ga bo'yoq (akvarel, moybo'yoq, tempera, guash, yelimbo'yoq), qalam, rangli tosh, shisha va boshqalarda ishlanadigan tasviriy san'at turi. Qanday xomashyodan va qanday ishlanishiga qarab rangtasvir va grafikaga ajratiladi. Rangtasvirda rang muhim o'rin egallaydi va uning harakterli tomonlarini belgilaydi; grafikada asosan chiziq, oqqora bo'yoq dog'lari asosiy bo'lib, rang ikkinchi darajali o'rin tutadi, ko'p hollarda shartli, ramziy ma'noda asarning g'oyaviy emotsional tomonini kuchaytirish maqsadida uni qo'llash mumkin. "Rassomlik san'ati" iborasi 20-asr 50-yillaridan qo'llanilib, dastlab rangtasvirni ta'riflash uchun ishlatilgan. Bugungi kunda, shuningdek, badiiylik ma'nosida xam qo'llaniladi.

Rassom- tasviriy san'at sohasidagi ijodkor. Qog'oz, karton, mato va boshqa materiallar, shuningdek devor va shiftlarga tasviriy san'atning turli texnikalarida chizib, bo'yab rasm soluvchi kishi. Rassom inson faoliyati, hayoti uchun zarur

bo'lgan har xil narsalarning shaklini, hajmini yaratishga, ularni did bilan bezatishga, xam hissa qo'shadi.

Rassomchilik san'ati, nafis san'at, rangtasvir, "jivopis" — tasviriy san'at turi, bo'yoq yordamida yaratiladigan badiiy asar. Insoniyat jamiyatida ta'sir, tarbiya, tashviq quroli xizmatini o'taydi, ayrim namunalari esa hujjatli informatsiya qimmatiga ham ega. Ijodning bu turi bilan shug'ullanuvchi san'atkor — rassom rang bilan rasm vositasida tabiatni, muhitni (uning ma'lum bir qismini, ma'lum bir daqiqadagi holatini) gavdalantirish bilan birga ro'y berayotgan voqea, hodisa mohiyati, kishilarning ichki dunyosini va ma'lum bir g'oyani aks ettiradi

Vazifasi va obrazlari xarakteriga ko'ra rassomlik san'atining arxitektura inshootlarida bezak bo'lib ham xizmat qiladigan monumental- dekorativ, devoriy rasmlar (panno), biror joy, narsa bilan bog'liq bo'lmay, mustaqil tarzda o'z vazifasini o'taydigan dastgoh kartinalari, teatr va kinofilmlar uchun tayyorlanadigan dekoratsiya, diorama, panorama, kichik hajmli minia-tyura xillari ham bor. Bo'yoq xili va tasvir hosil qilishdagi texnologik usullariga ko'ra moybo'yoq rassomligi, freska, tempera, elim rassomligi, emal, keramika bo'yoklari rassomligi (chinni va sopolga gul, naqsh, tasvir ishlanib so'ng qattiq qizdiriladi), silikat bo'yoqlar rassomligi va shu kabi turlarga bo'linadi. Mozaika, vitraj ham rassomlik san'ati xili bo'lib, monumental-dekorativ san'at vazifasini bajaradi. Rassomlik san'ati asarlari akvarel, guash, pastel, tush bilan ham ishlanadi

Rassomchilik san'atida asosiy tasvir vositasi rang bo'lib, tasvir turli ranglar va bir rangning bir necha ko'rinishi (och, to'q va h. k.)dan foydalanib hosil qilinadi. Rang, chiziqlar bilan hosil qilingan rasm rassom ko'zda tutgan kompozitsiyada xizmat qilib, hayot lavhasini gavdalantiradi. Rassomlik san'ati asarlari mato, karton, qog'oz, yog'och, tosh, oyna, metall, ganch (yoki alebastr) va boshqaga chiziladi.

Rassomchilik san'ati so'nggi paleolit davrida (bundan 40-8 ming yil muqaddam) vujudga kelgan. Ibtidoiy san'at namunalari xayotiy lavhalar sxematik aks ettirilgan,. Quldorlik jamiyatida rassomlik san'ati ning texnika vositalari takomillashib, monumental rassomlik (Qadimgi Misrda) vujudga keldi. Antik davrda esa rassomlik san'ati me'morlik va xaykaltaroshlik bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlandi. O'rta asrlarda Evropa va Kavkazda ibodatxonalarni, diniy qo'l yozma kitoblarni bezashga. xristian ideologiyasigaxizmat qildirildi, old va O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Yaponiyada miniatyura rivojlandi.

Rassomchilik san'ati rivojiga Uyg'onish davrida katta hissa qo'shildi. Bu davrning insonparvarlik g'oyalari ta'sirida realistik tasvir avj oldi.

Mazachcho, Pero della Francheska, Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Titsian kabi buyuk rassomlar rassomlik san'ati tarixida unutilmas obrazlar yaratdilar. 17- asrda rassomlik san'ati janrlari aniq shakllandi. Turli uslublar

(gotika, barokko, klassitsizm, naturalizm, romantizm, impressionizm va b.), milliy maktablar vujudga keldi. 19—20- asrlar rassomlik san'ati tarixida ayniqsa murakkab va qarama-qarshiliklarga to'la davr bo'ldi. Realistik san'at behisob modernistik oqimlarga qarshi keskin kurash olib borib, rassomlik san'ati tarixidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirmokda. O'zbekistonda sobiq sovet hokimiyati yillarida rivoj topdi. Revolyusiyadanoldin Turkistonga (kelib, mahalliy hayot lavhalarini katta iste'dod bilan tasvir etgan V. V. Vereshchagin, O'zbekistonga kelib ijod etgan rus sovet rassomlari I. Kazakov, P. Benkov, A. Volkov, O. Tatevosyan, L. Bure, Usto Mo'min (A. Nikolaev), V. Kaydalov, M. Kurzin va boshqa rassomlar O'zbekistonda rassomlik san'ati rivojiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Ularning ta'siri va bevosita yordami bilan ijodi shakllangan U. Tansikboev, CH. Ahmarov, L. Abdullaev, B. Hamdamiy, shuningdek keyinroq ijod maydoniga kirib kelgan R. Ahmedov, M. Nabiev, A. Abdullaev, Z. Inog'omov, N. Qo'ziboev, M. Saidov, R. Choriev, R. Temirov, B. Boboev va boshqa o'zbek rassomlik san'atining turli janrlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. Istoriya iskusstva Uzbekistana. – M., 1965.
2. Nedoshivin G.A. Teoreticheskie problemy sovremennogo izobrazitel'nogo iskusstva. – M., 1972.
3. Kantor A. M., Izobratel'noe iskustvo XX veka. – M., 1973